



ENSURING IDEOLOGICAL SECURITY — A FOUNDATION FOR SOCIAL AND STATE STABILITY

Saida Makhamadkodiurovna Karimova

Lecturer at Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ideological threat, ideological security, national identity, national values, moral degradation, Internet.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

Abstract: This article discusses how the ideological landscape of the world is changing, the emergence of new ideological threats resulting from intense geopolitical clashes between various ideologies aimed at capturing people's attention, and the issues of countering their harmful influence and ensuring ideological security.

MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH - JAMIYAT VA DAVLAT BARQARORLIGINING ASOSI

Saida Maxamadkodiurovna Karimova

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zi: Mafkuraviy tahdid, mafkuraviy xavfsizlik, milliy o'zlik, milliy qadriyatlar, axloqiy buzuvchilik, Internet.

Annotatsiya: Maqolada dunyoning mafkuraviy manzarasi qanday o'zgarib borayotgani, odamlarni o'ziga jalb etishni maqsad qilgan turli mafkuralar o'rtasidagi shiddatli geosiyosiy to'qnashuvlar natijasida yangi mafkuraviy tahdidlar kelib chiqayotgani, ularning zararli ta'siriga qarshi kurashish, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari haqida so'z boradi.

ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ — ОСНОВА СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА

Саида Махаммадкодиуровна Каримова

Преподаватель

Гулистанского государственного университета

Гулистан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идеологическая угроза, идеологическая безопасность, национальное самосознание, национальные ценности, моральное разложение, Интернет.

Аннотация: В статье рассматриваются изменения идеологической картины мира, возникающие новые идеологические угрозы в результате острого геополитического противостояния между различными идеологиями, стремящимися завоевать внимание и умы людей. Также обсуждаются вопросы противодействия вредному влиянию этих идеологий и обеспечения идеологической безопасности.

Kirish.

Globallashib borayotgan dunyoda mafkuraviy xavf-xatarlarning paydo bo'lishi insoniyat oldiga yangi muammolarni qo'yimoqda. Odamlarning qalbi va ongini egallash uchun raqobatning kuchayishi zamonaviy davrning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu borada endilikda ochiqdan – ochiq ko'rish va sezish qiyin bo'lgan ko'proq g'oyaviy – mafkuraviy vosita, qurol va maxsus texnologiyalar qo'llanmoqda.

Qadim zamonlardan beri xavfsizlik har qanday jamiyatning eng muhim jihati sifatida qarab kelingan. Shaxs, jamiyat va davlat uchun xavf tug'diruvchi kuchlardan himoyalaniish uchun xavfsizlik choralarini doimiy ravishda amalga oshirish juda muhim. Yoshlar qalbi va ongi uchun mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali zamonda ham ichki, ham tashqi xavf-xatarlar har xil tus olmoqda. Ayni damdagi eng muhim maqsad ularni mohiyatini tushunish va imkon qadar tezroq to'xtatishdir.

“Dunyoning mafkuraviy manzarasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli mafkuralar o'rtasida geosiyosiy kurashlarning keskin tus olganligi mafkuraviy xavfsizlikka diqqatli bo'lishga undaydi”.[1]

Asosiy qism

Barcha davrda ham xavfsizlik masalasiga jamiyat barqarorligi va farovonligining asosiy sharti sifatida qarab kelingan. Shu nuqtai-nazardan ko'plab xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan ushbu masala tadqiq etilgan. Globallashuv sharoitida jamiyat va davlat farovonligini ta'minlash masalalarini Dobrenkov V.I, Selyanin V[2] tadqiqotlarida ochib berishgan.

Yurtimiz olimlaridan Ergashev I, Atavullayev M, Xudaynazarov A Paxruddinov Sh., G'oibnazarov Sh[4] tadqiqotlarida mafkuraviy tahdidlar, ularning sabab va qibatlari, g'oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashga oid masalalarni o'rganishgani e'tiborga molik.

Tadqiqotni olib borishda analiz, sintez, mantiqiylik usullaridan foydalanildi.

Mafkuraviy xavfsizlik dunyo miqyosida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan masaladir.

“Mafkuraviy xavfsizlik — shaxs, millat, jamiyat, davlatning hilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladigan mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning buzg‘unchilik ta’siridan himoyalanganlik darajasini tafsiflovchi tushuncha”[6] bo‘lib, uni ta’minlash ayni paytda har qachongidan ham muhimroq.

Mafkuraviy xavfsizlik — bu davlat* yoki jamiyatning mafkurasi, ya’ni ideologik asoslarini, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini himoya qilish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir.

Turli mafkuralar o‘rtasidagi geosiyosiy qarama-qarshiliklar hozirgi globallashuv sharoitida global mafkuraviy maydonda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Internetning paydo bo‘lishi axborot sohasida inson uchun juda ko‘p qulayliklar yaratdi. Minglab chaqirim masofalar go‘yo o‘zining ahamiyatini yo‘qotdi. Dunyoning hohlagan go‘shasiga bir zumda har qanday xoh yozuvli, xoh ovozli, xoh tasvirli bo‘lsin axborotni uzatish yoki undan qabul qilish mumkin bo‘lib qoldi. Bu esa buzg‘inchi g‘oyalar targ‘ibotida, mafkuralar kurashida qo‘l kelmoqda. Mafkuraviy tahdidlar hujumi tobora avj olib, kuchayib bormoqda.

Mafkuraviy tahdidlar hujumi — bu ma’lum bir g‘oya, ideologiya yoki mafkura orqali jamiyatni, uning qadriyatlarini, an’analarini va madaniyatini o‘zgartirish yoki yo‘q qilishga qaratilgan harakatlar to‘plamidir. Bunday tahdidlar ko‘pincha siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy maqsadlar uchun ishlatiladi va ular turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Propaganda ya’ni targ‘ibot-tashviqot. Ma’lum bir g‘oyani yoki ideologiyani targ‘ib qilish uchun axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan yolg‘on yoki manipulyatsion ma’lumotlar.

Madaniy ta’sir: Boshqa madaniyatlarning qadriyatlari va an’analarini o‘zlashtirish va mahalliy madaniyatni yo‘q qilishga urinishlar.

Siyosiy ta’sir: O‘z manfaatlarini himoya qilish maqsadida boshqa davlatlar yoki guruhlar ustidan nazorat o‘rnatishga urinishlar.

Ijtimoiy bo‘linish: Jamiyat ichida ijtimoiy guruhlar o‘rtasida kelishmovchilik va dushmanlikni keltirib chiqarish, bu orqali biror mafkuraning kuchayishiga erishish.

Buzg‘unchilik, axloqsizlik, zo‘ravonlik va boshqa nosog‘lom mazmundagi axborotlarga Internet, mobil aloqa, kompyuter o‘yinlari, video va kino mahsuloti foydalanuvchilari duch kelayotgani doimiy holatga aylanmoqda. Bunday axborot o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’sir etib, uning ma’naviy, psixologik va jismoniy rivojiga ma’lum darajada ziyon yetkazmoqda. “Ommaviy madaniyat” zo‘r berib tiqishtirilyapti. Bu yo‘lda OAV oson va qulay vosita sifatida maydonga chiqyapti. Ma’naviyatni, madaniyatni o‘ldirishga qaratilgan “Ommaviy madaniyat”

jamiyatni yemirib, tanazzulga olib keladi. Aslida Ommaviy madaniyat — bu keng omma tomonidan qabul qilinadigan, iste'mol qilinadigan va tarqatiladigan madaniy mahsulotlar va g'oyalar yig'indisidir. Ommaviy madaniyat ko'pincha tijorat manfaatlari uchun yaratiladi va ishlab chiqariladi, ya'ni uning asosiy maqsadi foyda olishdir. Lekin, bugungi kunda bu tushuncha zahirida ko'proq insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlash, ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlash va ularni keng ommalashtirishga intilishlar kuchaygan. U ko'pincha ommaviy axborot vositalari, kino, televideniye, musiqa, internet va boshqa kommunikatsiya kanallari orqali tarqatiladi. "Ommaviy madaniyat" asarlari ko'pincha oddiy va keng ommaga tushunarli bo'lishi uchun sodda, his-tuyg'ularni qitqlovchi, tashqi ko'rinishidan jimjimador qilib ishlanayotgani ularni oson qabul qilish imkonini bermoqda.

Gegemonlikka intilgan davlatlarning mafkurachilari madaniy gegemonlikka erishish uchun xalqning ma'naviy-madaniy tayanchlarini kuchsizlantirish, ularga butunlay teskari bo'lgan g'oyaviy ta'sirlar orqali erishish mumkinligini ta'kidlashgan[7]. Milliy o'zlikni anglashga yo'l qo'ymaslik, tarixiy xotirani susaytirish, milliy qadriyatlarni qadrsizlantirishga bo'lgan urinishlar kuchayib, mamlakat kelajagi bo'lgan yoshlarni axloqiy buzqlik sari yetaklab, jamiyatni parchalashga bo'lgan urinishlar avj olyapti.

Ommaviy axborot vositalari odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. OAVning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib keldi. Shu jihatdan, biz yuqoridagi kabi xolatlarni kelib chiqishi va keng taqalishiga yordam beradigan holat va vositalar sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin:

- Turli virtual (kompyuter) o'yinlar.
- Ayrim chet el va ayrim o'zbek filmlari.
- Turli zamonaviy G'arbona usuldagi saviyasiz qo'shiqlar.
- Ayrim chet el telekanallari.
- Internet va undagi turli ijtimoiy tarmoqlar.
- Uyali aloqa telefonlari.
- Sariq matbuot.
- Loqaydlik va beparvolik kabi illatlar.
- Migratsiya (urbanizatsiya) jarayoni.
- Millionlar o'yini – futbol va sportning ayrim turlari.
- Turli bayram tantanalari va to'ylar.
- Yolg'on axborot hamda ma'lumotlar tarqatuvchi xususiy radiokanallar va boshqalar.

Xalqimiz ming yillar davomida shakllangan, asrlar sinovidan o'tgan an'analarga ega, bugun esa ana shu qadriyatlarga qaratilgan tahdidlar ularni osongina mahf etayapti. Xalqimiz tabiatiga xos insoniylik, mehr-oqibat, mehmondo'stlik, mardlik, or-nomus, bag'rikenglik, bolajonlik, jamoaviylik kabi tushunchalarni yemrilishiga ijtimoiy tarmoqlar beminnat xizmat qilmoqda.

“Yoshlarning axloqi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan “olomoncha madaniyat”ning ba'zi ko'rinishlari quyidagilardir:

Birinchisi, hozir jahon media bozorining to'rtidan uch qismini g'arb televizion dasturlari egallagan. Ularning tumtaroq musiqalari, ma'nosiz va g'ayritabiiy qo'shiqlariga butun dunyo taqlid qilayotgani achinarli hol. Bunday ko'rinishlar yoshlarni mahliyo qilib, o'z domiga tortmoqda. Oqibatda, ayrim o'smirlar uyda, maktabda va hatt yo'lda ham ana shunday zararli narsalar bilan band bo'lishayapti.

Ikkinchisi, Bugun g'arbda aksariyat yoshlar ma'naviyati tanazzulga uchrayotgani aniq. Shunga qaramay, ayrim ommaviy axborot vositalarida ularning turmush tarzi targ'ib qilinayotgani ajablanarli. Garchi bunday vaziyat mamlakatimizda kuzatilmasa-da, xotirjam bo'lishga asos yo'q.

Uchinchisi, xorijda ishlab chiqarilayotgan andozasiz kiyimlar va ularda aks ettirilgan ma'nosiz so'zlar yoki yovuzlikka chorlovchi suratlar yoshlar ongi va fe'liga bilmagan holda salbiy ta'sir o'tkazadi. Masalan, xorijda tayyorlangan kiyimlardagi “killer” (qotil), “dander” (dahshat) kabi so'zlar va hayosizlikni ifoda etuvchi manzaralarning tub mohiyatiga e'tibor qaratish kerak. Aks holda, farzandlarda zo'ravonlik va jonga qasd qilish kabi illatlar oddiy holatga aylanib qolishi mumkin.

To'rtinchisi, G'arb yoshlarida uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikka berilish holatlari ancha yuqori. Bunga sabab-bolalarga me'yoridan ortiq erkinlik berilganidir. Buning ustiga, “olomoncha madaniyat” er-xotin va bolalarning oiladagi vazifalari, burch va mas'uliyatlaridan “ozod” etib, oilaviy birlik, mehr-muruvvatni yo'qqa chiqarayapti, oilani inqirozga olib kelmoqda.

Beshinchisi, g'arb turmush tarzida g'urur-or, erkakning sha'ni, ayollik iffati degan nozik tushunchalar yemirila boshlaganiga ancha bo'ldi[8].

Modomiki, vayronkor g'oyalarning murakkab sintezi sifatida maydonga chiqayotgan mafkuraviy tahdidlar nishoni inson qalbi va ongini egallashga qaratilgan ekan, ulardan himoyalaniishning eng ishonchli chorasida ana shu xalqimizning ongi va qalbida bo'shliq hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Ularni o'zimizning milliy tarbiyamizga yo'g'irilgan, milliy

qadriyatlarimizga asoslangan g'oyalarimizni singdirishimiz, mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz lozim.

Inson o'zligini qanchalik yaxshi anglasa, buyuk ajdodlari, asli-naslini qanchalik chuqurroq bilsa, uning vujudida ona yurtiga muhabbat uyg'onib, allangalanib boradi. O'zligini anglagan insonni esa hech qachon irodasi bukilmaydi, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar qurboniga aylanmaydi. Shunday ekan, o'sib kelayotgan yosh avlod tafakkurida o'zligini unutmaslik, otabobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning, men o'zbek farzandiman, deb, g'urur va iftixor bilan yashashiga erishish ma'naviy tarbiya ishimizning markazida turmog'i lozim.

Xulosa. Mafkuraviy tahdidlar o'zining ta'siri va oqibatlarini tezda payqab olish qiyinligi, oshkora va yashirincha olib borilishi va bartaraf etish choralarining aniq belgilangan andozasi yo'qligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, hozirgi kunda mafkuraviy tahdidlarni andozasi yo'ligi, yashirin va turli niqoblar ostida amalga oshirilayotganligi ulardan ogoh etish jarayonini murakkablashtirmoqda. Bu tahdidlar bilan kurashish uchun ta'lim, targ'ibot-tashviqot, va ijtimoiy muloqotni rivojlantirish zarur.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримова, С. (2021). Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning tarkibiy funksional tahlili. Общество и инновации, 2(11), 273-279.
2. Добренъков В.И. Глобализация. Сущность, проявления и социальные последствия. Издательство Академический проект, 2018. ISBN 978-5-8291-2287-4 С.636;
3. Селянин В. Глобализация. Основы и развитие. 2023. ISBN 978-5-0056-1565-7. 70ст.
4. Ergashev I, Atavullayev M, Xudaynazarov A. Globallashuv va g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar. Oquv qo'llanma. – T.: Universitet, 2021. 460 bet.;
5. Пахрутдинов Ш. Тахдид-халокатли куч. – Т.:Академия,2001. Ғоибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдири, омиллари ва манбаи. – Т.: Ўзбекистон, 2009;
6. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T.: Akademiya nashriyoti, 2007. – B. 200.
7. Karimova, S. (2024). “OMMAVIY MADANIYAT” YOXUD PINHONIY TAHIDDLAR. Академические исследования в современной науке, 3(52), 51-54.
8. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya. – T.:Movorounnahr, 2016. 112-113-b.